

TA'LIM BERISHDA INNOVATSION FAOLIYAT VA PEDAGOGIK MAHORAT

Abidjonov Zafar Xamidjonovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi katta o'qituvchisi

Аннотация. *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar, uslublar O'qitishning interfaol uslublari va ularning qo'llanilishi haqida so'z ketgan.*

Калит сўзлар: *Ta'lim pedagogika, jarayon, o'qituvchi, talaba, tinglovchi, innovatsiya, texnologiya, aql, g'oya, vaqt, fikr.*

ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В этой статье говорится об интерактивных методах обучения и их применении.*

Ключевые слова: *Образование, педагогика, процесс, учитель, студент, слушатель, инновации, технологии, разум, мысли, время, мысли.*

INNOVATIVE ACTIVITIES AND TEACHING SKILLS IN EDUCATION

Abstract. *This article discusses interactive learning methods and their application.*

Key words: *Education, pedagogy, process, teacher, student, listener, innovation, technology, mind, thoughts, time, thoughts.*

Zamon shiddat bilan rivojlanish bilan birga hozirgi vaqtda tinglovchilar bilan mashg'ulotni yuqori saviyada tashkilashtirishda pedagoglar o'z ustida ko'proq ishlab, zamon talablariga javob berish kerak. Bular nimalarda namoyon bo'lish mumkin:

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy harakterdan kelib chiqqan holda, tinglovchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati

beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba tinglovchini bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Ta'limda o'qitishning turlariga, turli darajali, modul tizimli, masofali ta'lim, andragogika, informal ta'lim, rasmiy ta'lim, norasmiy ta'limlar deb ta'kidlab, shundan interfaol ta'limga batafsil to'xtalib o'tamiz. Interfaol metodi talabalarda muammolarni aniqlash qobiliyati, kognitiv ko'nikmalarini va malakalarini rivojlantirish, mavjud manbalardan va imkoniyatlardan foydalanib, muammoning yechimini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Pedagogik jaraenning samarali va natijali bo'lishini ta'minlaydigan interfaol uslublardir. Interfaol ta'lim tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, - interfaol-inglizcha so'z bo'lib-inter-o'zaro va act -harakat qilmoq, ular umumlashtirganda esa, Interfaol-o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Interaction – hamkorlikni (boshqalar bilan) bildiradi. O'zaro harakat turlari: o'qituvchi – kursant; kursant - kursant; o'qituvchi - kursantlar; kursantlar - kursantlar; kursantlar – o'qituvchi. O'qitishning interfaol uslublari quyidagilarga;

KONGNITIV (cognito – lotincha so'z bo'lib, -bilim||,-bilish|| ma'nosini anglatadi) - eng avvalo, talabalarining tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan, u èki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan uslubdir.

EKSPERIMENTAL talabalarining- jonli||, shaxsiy tajriba orttirishlariga yo'naltirilgan.

ROLLI O'YINLAR, MODELASHTIRISH hayotiy vaziyatlarni modelashtirish hamda ma'lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko'rishga yo'naltirilgan (uslub jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog'liq, ammo muhokama rolli o'yin tahlili asosida olib boriladi).

FASILITATSIYA (inglizcha facilitates - osonlashtirish) – guruh ishini tashkil etish, ko'pincha aniq, haqiqiy, amaliy topshiriqlar bilan bog'liq, aniq qaror qabul qilish bo'yicha muhokama, faoliyatning haqiqiy rejasini ishlab chiqish, haqiqiy, mojaroli manfaatlarni muvofiqashtirishga mo'ljallangan.

O'quv jaraenini samarali tashkil etish quyidagilarga bog'liqdir.

-Ko'rmoq

-Bilmoq

-Mashq qilmoq

-Takomillashmoq

-Qo'llamoq

O'quv jaraenida mavzuni shaxs tamonidan qabul qilinish filtrlari. O'quv jaraenida mavzuni shaxs tamonidan qabul qilinish vositalari – ko'rish, eshitish, his-tuyg'udir. Qabul qilishning eng muhim filtrlari hisoblanadi.

Vizual – ko'rish orqali qabul qilinadigan axborot (obrazlar, rasm, film).

Audil – eshitish orqali qabul qilinadigan axborot (nutq, shamolning hushtagi, tomchilaetgan suv, ohang, tembr, ovoz balandligi).

Kinestetik (grekcha- kines - harakat) – his qilish orqali qabul qilinadigan axborot (hid, ta'm).

Aqliy hujum - bevosita jamoa bo'lib-fikrlar hujumi||ni olib borish. Bu uslubdan maqsad-mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jaraënida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

Breynstorming – bu atama inglizcha so'z bo'lib, ikki tushunchadan iborat:

brain-miya, storming-hujum, bo'ron, qattiq hayajon. Uslubning-miyani hayajonga solish|| deb yuritilishi, uning asl mohiyatini ochib beradi, lekin ba'zida uni -jamoviy ijodiy fikrlash|| deb ham tushunsa bo'ladi. Rus tilida Mozgovaya ataka uslubi, o'zbek tilida-Aqliy hujum yoki-Fikrlar hujumi uslubi deyilishi, uning asl mohiyatini saqlashga èrdam beradi.

Bu uslub 15 kishidan ortiq bo'lmagan guruhlarda o'tkaziladi. Asosiy tamoyil: erkin muloqat-munozara jaraënida berilgan mavzu asosida yangi navatorlik g'oya, fikrlar to'planadi. Aytilgan g'oya, fikrlarning sifatiga emas, ularning qanchalik ko'pligiga e'tibor qaratiladi.

Aytilgan g'oya, fikrlar muhokama ham, tanqid ham qilinmaydi. Munozara erkin va o'zaro samimiy munosabat holatida o'tkaziladi. To'plangan g'oya, fikrlar asosida tuzilgan umumiy g'oya, fikrlarning qay darajada muhimligi, muammo èki mavzu bilan yaxshi tanish bo'lgan mutaxassisekspertlar tomonidan baholanadi.

Ushbu jaraënda o'qituvchining asosiy vazifasi - imkon boricha har bir aytilgan g'oya, fikrni to'plab borishdan iborat.

O'qituvchining innovatsion faoliyati asosida notiqlik mahorati birlamchi o'rin tutadi bular:

- Savol berish mahorati;
- Eshitish mahorati;
- Tana tilida tushuntirish mahorati;
- Hikoya tuzish mahorati;
- Axborotni xotirada saqlash va uni uzatish mahorati va hokazo.

O'qituvchining innovatsion faoliyatida vaqt muhim o'rin tutadi. Vaqt menejmenti; Vaqt–nima?

Nima uchun?

Qanday qilib?

-Vaqt o'g'rilar|| omadli inson bo'lib yetishishimizda bizga to'sqinlik qiladi. Agar vaqtni boshqarmasang, u qo'lingdan uchib ketadi||, deb ta'kidlaydi Serill Parkinson. Vaqt haqida Vilfredo Pareto 80/20 qoidasida shunday deydi, -Inson umrining 80,0 %ini mayda-chuyda, keraksiz ishlarga, 20,0%ini muhim, dolzarb ishlarga sarflar ekan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchi mashg'ulot davomida qaysi innovatsiya, uslublarni qo'llamasin eng asosiysi tinglovchilarga materialni to'g'ri va aniq yetkazib, mashg'ulotga qo'yilgan maqsadga erishish o'z natijasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuhammedov R.J. O'quv jaraènida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - T.: RBIMM.
2. Aliqulov M.M. Innovatsion pedagogika. Uslubiy qo'llanma.
- © Iqtisodiyat universiteti, TDIU nashriyati, 2012.